

Akademiklarning o'quvchilar bilan uchrashuvi

✘ Ma'lumki, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2018 yilning 21 dekabr kuni yuqori sinf o'quvchilarini Oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishdagi qiziqishini oshirish, kelgusida kasb tanlashda yanglishmasligini ta'minlash, Respublikamiz uchun yetuk mutaxassislar bo'lishi uchun nima qilish kerakligi haqida davra suhbatlari va uchrashuvlar o'tkazish bo'yicha topshiriqlar bergan edilar.

Qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun Toshkent shahrining Yunusobod tumanida joylashgan Toshkent Pediatriya instituti litseyida 2019 yilning 28-martida olimlar bilan litsey o'quvchilarining "Navro'z" bayrami arafasida uchrashuvi o'tkazildi. Bu uchrashuvda O'z FA vitse-prezidenti, akademiklar B.T.Ibragimov, A.T.Jalilov, M.M.Mirsaidovlar, professorlar X. Kimsanboyev, B. Zaripov, J. Xusanovlar qatnashdilar. Uchrashuvni litsey direktori prof. O.E.Eshonqulov olib bordi. Bu uchrashuvda litsey o'qituvchilari va 150 dan ortiq litseyning jahon olimpiada g'oliblari va faol o'quvchilari qatnashishdi.

Bu uchrashuvda TIQXMMIning "Nazariy va qurilish mexanikasi" kafedrasini mudiri M.Mirsaidov ham qatnashib, kelgusida yoshlarimiz yetuk olim yoki boshqa sohalarning yetuk mutaxassislari bo'lishlari uchun nima qilish kerakligi haqida o'z fikr-mulohazalarini o'quvchilarga bildirib o'tdilar. Ishtirokchilarning ko'plab savollariga javob berdilar. Litseyda a'lo o'qigan va olimpiada sovrindorlari bo'lgan o'quvchilarga ✘ kitoblar sovg'a qilindi. Bu litsey Respublikamizda ko'zga ko'ringan va faqat hamdo'stlik davlatlari ichida emas, jahonda o'z o'rniga ega bo'lgan litseylardan biridir.

Oxirgi 10 yilda ximiya fani bo'yicha jahon olimpiadalarida Respublikamizning barcha litsey va maktablari jami 5 ta medal olgan bo'lsa bu litsey o'quvchilari 12 ta medal sohibi bo'lgan. Bularning 2 tasi oltin, 2 tasi kumush va 8 tasi bronza medallardir. Jahon olimpiadasi rivojlangan mamlakatlarda utkazilgan, ya'ni AQSH, Shveysariya, Daniya, Singapur, Koreya, Rossiya, Turkiya, Chexiya, Slovakiya va boshqalar. Shu bilan bir qatorda oxirgi o'n yilda Xalqaro Mendeleyev olimpiadasida qatnashib, respublikamiz o'quvchilari olgan 70 medalning 43 tasini shu litsey o'quvchilari qo'lga kiritgan.

2018 yil Litsey uchun omadli yil bo'lib, bu yilda Singapurda o'tkazilgan jahon olimpiadasida 1 ta oltin 1 ta kumush va 4 ta bronza medalini, Slovakiya va Chexiyada o'tkazilgan olimpiadalarda 2 ta bronza, Minsk shahrida o'tkazilgan Mendeleyev olimpiadasida 1 ta kumush 3 ta bronza medalini qo'lga kiritishdi.

Kelgusida Prezident maktablarining ochilishi bu litsey o'quvchilariga raqobat tug'dirishiga ishonamiz, chunki u maktablarda ham har bir viloyatda Respublikamizning gullari bilim olishadi, shuning uchun bu litsey o'quvchilari o'zlarining harakatlarini bundan ham kuchaytirishi kerak. Ayni paytda litsey o'quvchilariga "Navro'z" bayrami arafasida baxt-saodat va omad hamda kelgusida bundan ham katta yutuqlarga erishishini tilab qolamiz.

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov